

AXBOROT ALMASHINUVI

Nabiyev Fazliddin

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda tobora jadallahib borayotgan axborot tizimlari ularning turmushimizda tutgan ahamiyati va axborot almashish uchun vositalar yana shunga aloqdar ma'lumotlar qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsion texnologiyalar, plagiarism, raqamli texnologiyalar, media globallashuv jarayoni

Abstract: In this article, information systems, which are becoming more and more popular in our time, their importance in our life, tools for information exchange and related information are briefly described.

Key words: Information communication technologies, plagiarism, digital technologies, media globalization process

Axborot bu insonni uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlari, texnik tizimilarini boshqarish vositasidir. Axborot muloqotini tog'ri yo'lga qo'yish shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va shakllantirishning asosini tashkil qiladi. Axborat shu o'rinda insonga ijtimoiy va texnik me'yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me'yorrlarga amal qilmaslikning bo'lg'usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. Agarda deylik jahonda sodir bo'layotgan daolzarb mavzular hodisalar, voqealarni dastlab televizorda ko'radigan bo'lsak. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Masalan deb bekorga ta'kidlab o'tmadim, chunki hozirgi kunda axborot olish va axborot uzatish maydoni sifatida internetning hayotimizdagи ajralmas qismiga aylangani hech kimga sir emas. Global tarmoq albatta axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o'zgartirib tashladi.

Bizga ma'lumki hozirga kelib axborot tushunchasi uning kengligi uning almashinuvi kabi jarayonlar yuqori darajada rivojlanib bormoqda va hali beri to'xtashga qaror qilmayapti. Zamonaviy media makonida internet va unda axborot almashinuvining o'ziga xosligi. Ya'ni bu jarayonlar izchilligini saqlash maqsadida AKT(Axborot kommunikatsion texnologiyalar), OAV(ommaviy axborot vositalari), gazeta va jurnallar biri-biriga ayovsiz jang e'lon qilgan. Bunda kurashning asosiy yutug'i bu albatta biz ya'ni har bir shaxs desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z maxsulotini o'tkazish uchun jon berib harakatlanayotgan sotuvchilardek raqobatga kirishgan, bunda har kim turli usullardan, ba'zida esa hattoki qing'ir yo'llardan foydalanish orqali axborotga jalb qilish holatlari kuzatiladi. Istemolchilar tomonidan bunday provakatsiyalarga uchish holati ham ko'p uchraydi albatta sababi axir shokolodni

dastlab ustidagi yaltiroq qog’ozi qiziqishga majbur qiladi. Vaholanki axborot sifati bir yoqda qolib buning natijasida axborot soni degan tushuncha paydo bo’layapti ijtimoiy tarmoqdagi xurujlar ma’nosiz ishlanmalar, yolg’on ma’lumotlar, plagiarism sonini ortib borishi bularning barchasi bir bo’lib istaymizmi istamaymizmi axborot olamining bir qismiligicha qolmoqda. OAV larning ba’zida bir xabarni turli xil usulda va turli hil pozitsiyalarda yoqlab chiqishi biri bu yaxshi desa bir aksi deb taqdim etmoqda. Internet tarmog’idagi ma’lumotlarda totalizator va pornografik kontentni ochiqchasiga reklama qilinishi qaysidir ma’noda axborotni farqiga bora olmaslikka olib keladi. Axborot almashinuvi - Bu jarayon, unda axborot manbai uzatiladigan jarayon va qabul qiluvchining qabul qilinadi. Agar uzatilgan xabarlarda xatolar aniqlansa, u ushbu ma’lumotlarni qayta uzatish orqali tashkil etiladi. Manba va qabul qiluvchi o’rtasida ma’lumot almashish natijasida "Axborot balansi" turi tashkil etilgan bo’lib, unda ideal holatda oluvchi manba sifatida bir xil ma’lumot bo’ladi.

Ma’lumot almashinuvi uning moddiy tashuvchisi bo’lgan signallardan foydalanadi. Ma’lumot manbalari ma’lum bir xususiyat va qobiliyatlar bilan haqiqiy dunyo ob’ektlari bo’lishi mumkin. Agar ob’ekt jonsiz xususiyatga ega bo’lsa, u o’z xususiyatlarini bevosita aks ettiruvchi signallarni ishlab chiqaradi.

Agar manba ob’ekti odam bo’lsa, unda ular tomonidan ishlab chiqarilgan signallar uning xususiyatlarini to’g’ridan-to’g’ri aks ettirishi, balki ma’lumot almashish uchun ishlab chiqaradigan belgilarga ham mos kelishi mumkin. Axborot almashinuvi uzatish va uzatish operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirish uchun aloqa kanallari va axborotni konversiyalash moslamalari ma’lumot olish uchun mos keladigan shaklda bo’lishi kerak Darhaqiqat, jahonda sodir bo’layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internetning hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashuv axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o’zgartirib yubordi. Bu haqida so‘z yuritganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytadi: “Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtida global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko’rsatayotgani, ushbu yo‘nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e’tiborga sazovordir. Haqiqatdan ham internet jurnalistlar faoliyatida yangi shakl va uslublarni joriy etdi. Bu borada muammoning yana bir jihatini e’tibordan qoldirmaslik kerak eng avvalo, internet aniq va noaniq bo’lgan axborot manbaidir. Ikkinchidan, bu global tarmoqda auditoriya ham axborot iste’molchisi, ham axborot tarqatuvchisi sifatida faoliyat ko’rsatadi. U o’zida juda ko‘p manbalar va manzillarni jamlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nozima Muratova, Nargis Qosimova, Gulnoza Alimova, A’зам Dadaxonov, Azizaxon Ilyosxonova, Sitora Xolmatova, Nigina Xakimova: Jurnalistika “Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar” –Т.: O’zbekiston, 2019. 135-b.
2. Nesterenko F.P., Irnazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug‘at-ma’lumotnomasi: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. - Т., Zar qalam, 2003. 48-b.
3. Принципы международной журналистики и международный обмен информацией. –М., 1999. С.5.
4. <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-tabrigi-matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalarikhodimlariga>
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. “Xalq so’zi”, 2018 yil 28-iyun